



O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti



**“Mintaqaviy jinoyatchilikning
dinamikasi va tendensiyalari”
nomli respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari
to'plami**

2026 - yil 15 - aprel



Toshkent - 2026

UDK 343.97(575.1)
KBK 67.518.0(5Y3)

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot Instituti kengashining 2026-yil “15” may 5-sonli bayonoma qarori bilan elektron va bosma shaklda nashrdan chiqarishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **B.E. Berdialiyev.**

Taqrizchilar:

yuridik fanlar doktori, professor **X.T. Odilkoriyev;**
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **Sh.O. Azim.**

Tuzuvchilar:

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent **Ya.Y. Ollamov;**
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **S.A. Isayev.**

Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2026-yil 15-aprel) / Mas’ul muharrir yu.f.b.f.d. B.E. Berdialiyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 384 b.

Ushbu to‘plamda mintaqaviy (hududiy) jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar, tahliliy yondashuvlar va amaliy takliflar jamlangan. Unda jinoyatchilikning turlari, hududlar kesimidagi o‘zgarishlar, profilaktika tizimini takomillashtirish masalalari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

To‘plam ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek, mazkur sohaga qiziquvchi barcha o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolalarning mazmuni hamda faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir.

Isayev Sardor Alisherovich

*O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi,
yu.f.b.f.d. (PhD)*

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLAR: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada jahon narkobozorining rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar va narkotik vositalarning noqonuniy muomalasida uyushgan jinoiy guruhlarning roli ko‘rib chiqiladi. Narkotiklarni ishlab chiqarish, iste‘mol qilish va tarqatish miqyoslari, shuningdek narkojinoyatchilikning o‘shiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan narkobozorning raqamlashuvi, kriptovalyutalardan foydalanish va yashirin internet-platformalarning rivojlanishi tahlil qilinadi. Transmilliy narkojinoyatchilikning xususiyatiga, uning xalqaro xavfsizlikka davlatlar iqtisodiy barqarorligiga va jamoat salomatligiga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyat yuritish xususiyatlari, ularning tuzilmasi va faoliyat usullari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasidagi narkojinoyatchilikning hozirgi holatini tahlil qilish asosida davlatning antinarkotik siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanadi va narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etiladi. Bular jumlasiga xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, operativ-qidiruv faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash va profilaktik dasturlarni amalga oshirish kiradi.

Kalit so‘zlar: transmilliy jinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, narkotiklarning noqonuniy muomalasi, narkobiznes, narkobozor, narkojinoyatchilik, antinarkotik siyosati, giyohvandlik profilaktikasi.

ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫЕ НАРКОУГРОЗЫ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ, ПРОБЛЕМЫ И МЕХАНИЗМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются современные тенденции развития мирового наркорынка и роль организованных преступных групп в незаконном обороте наркотических средств. Анализируются масштабы производства, потребления и распространения наркотиков, а также факторы, способствующие росту наркопреступности, включая цифровизацию наркорынка, использование криптовалют и развитие скрытых интернет-платформ. Особое внимание уделяется особенностям транснациональной наркопреступности, её влиянию на международную безопасность, экономическую стабильность государств и общественное здоровье. Рассматриваются структура, особенности функционирования и методы деятельности организованных преступных групп. На основе анализа текущего состояния наркопреступности в Республике Узбекистан определяются основные направления государственной антинаркотической политики и предлагаются меры по повышению эффективности противодействия незаконному обороту наркотиков. К ним относятся развитие международного сотрудничества, совершенствование оперативно-розыскной деятельности, противодействие коррупции и реализация профилактических программ.

Ключевые слова: транснациональная преступность, организованная преступность, незаконный оборот наркотиков, наркобизнес, наркорынок, наркопреступность, антинаркотическая политика, профилактика наркомании.

TRANSNATIONAL DRUG THREATS: MODERN TRENDS, CHALLENGES AND COUNTERMECHANISMS

Abstract. This article examines modern trends in the development of the global drug market and the role of organized criminal groups in the illicit trafficking of narcotic substances. It analyzes the scale of drug production, consumption, and distribution, as well as the factors contributing to the growth of drug-related crime, including the digitalization of drug markets, the use of cryptocurrencies, and the development of hidden online platforms. Special attention is paid to the characteristics of transnational drug crime and its impact on international security,

economic stability of states, and public health. The structure, operational features, and methods of organized criminal groups are also explored.

Based on an analysis of the current state of drug-related crime in the Republic of Uzbekistan, the main directions of the state anti-drug policy are identified, and measures to improve the effectiveness of combating illicit drug trafficking are proposed. These include strengthening international cooperation, improving operational and investigative activities, combating corruption, and implementing preventive programs.

Keywords: transnational crime, organized crime, illicit drug trafficking, drug business, drug market, drug-related crime, anti-drug policy, drug abuse prevention.

Kirish (Introduction). Jahon narkobozori so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda. Buni ishlab chiqarish, musodara qilish, iste‘mol qilish hajmlari, tibbiy yordamga murojaatlar soni, shuningdek o‘lim darajasi ko‘rsatkichlari tasdiqlaydi. Xalqaro tadqiqotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda faqat kokainning noqonuniy ishlab chiqarilishi rekord darajaga — taxminan 3 708 tonnaga yetgan bo‘lib, bu o‘tgan yilga nisbatan 34 % ga ko‘pdir [1]. Bunda o‘shish barcha qit‘alarda kuzatilgan.

Musodara qilingan kokain miqdori 68 % ga (2019–2023) oshgan, iste‘molchilar soni esa 2023-yilda taxminan 25 mln kishiga yetgan. Asosiy kontingent — 15–64 yoshdagi shaxslardir [2].

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda jahon narkobozorining rivojlanishida quyidagi yangi tendensiyalar kuzatilmoqda: amfetamin, metamfetamin, fentanil kabi sintetik narkotiklarni ishlab chiqarish hajmlarining ortishi; narkobozorning faol raqamlashuvi; hisob-kitoblarni amalga oshirishda kriptovalyutalardan foydalanish; narkotiklarni sotish bozorlarining yangi hududlarga kengayishi; jinoiy tarmoqlarning transmilliy xususiyatining kuchayishi. Ushbu omillar narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashning yangi strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi.

Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan musodara qilinayotgan narkotiklar hajmi ham ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yilda

O‘zbekistonda noqonuniy muomaladan qariyb 3,5 tonna narkotik vositalar musodara qilingan, 15,4 mingta narkojinoyat qayd etilgan, shuningdek narkotiklar bilan bog‘liq 1956 ta ma‘muriy huquqbuzarlik aniqlangan. 14 ta yashirin narkolaboratoriya fosh etilgan. Narkojinoyatlar sodir etgani uchun 11 mingdan ortiq shaxs javobgarlikka tortilgan (ular orasida 124 nafar talaba va 59 nafar maktab o‘quvchisi bor). Yoshlar orasida giyohvandlik holatlarining eng ko‘p qayd etilishi Toshkent shahrida kuzatilmoqda [3].

Yoshlar orasida narkotik vositalarni iste‘mol qilishga turli sabablar ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, masalan, noma‘lum hissiyotlarni sinab ko‘rish istagi yoki insonning xarakteri, odatlari, axloqiga ta‘sir etuvchi oilaviy yoki mahalliy muhit bo‘lishi mumkin. Ayrimlar uchun esa bu qiyinchiliklardan qochish, ruhiy og‘riqni yengish vositasi sifatida qabul qilinadi. Biroq aslida bunday yo‘l vaziyatni yanada og‘irlashtiradi va narkotikka qaramlikni shakllantiradi.

Narkotik vositalarning noqonuniy muomalasi transmilliy jinoyatchilikning eng keng ko‘lamli shakllaridan biri hisoblanadi. U xalqaro xavfsizlikka, davlatlar iqtisodiy barqarorligiga va millat genofondiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Narkotik savdosi uyushgan jinoiy guruhlar uchun asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi jinoiy faoliyatning yuqori daromadliligi kriminal tarmoqlarning kengayishiga va transmilliy jinoiy tuzilmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Uyushgan jinoiy guruhlar narkotik vositalarning noqonuniy muomalasining turli bosqichlarini nazorat qiladi — narkotik moddalarni ishlab chiqarish va qayta ishlashdan tortib, ularni tashish, sotish hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishgacha. Shu bilan birga, narkotiklarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq zo‘ravonlik holatlari kuchayishi ham mumkin.

Globalashuv sharoitida narkobozor tobora integratsiyalashgan va murakkab tus olmoqda, bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili (Literature review). Kriminologiyada uyushgan jinoyatchilik salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida qaraladi. U uyushgan

guruhlar, jinoiy jamoalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar majmuini, shuningdek ushbu guruh va jamoalar ishtirokchilari yig'indisini o'z ichiga oladi A.I. Dolgovaning fikriga ko'ra, uyushgan jinoyatchilik — bu keng ko'lamli jinoiy faoliyatni amalga oshiradigan hamda bunday faoliyat uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratadigan uyushgan jinoiy tuzilmalarning murakkab tizimidir. Ushbu tizim o'z faoliyatini ta'minlash uchun boshqaruv va boshqa xizmat funksiyalarini bajaruvchi ichki tuzilmalardan, shuningdek davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlaridan ham foydalanishi mumkin. Narkobiznesdan olinadigan yuqori daromad uyushgan jinoyatchilik bilan narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Bu holat mazkur bozor segmentida jiddiy raqobatning yo'qligi bilan ham izohlanadi. Narkobiznesning asosiy maqsadi — jinoiy faoliyat orqali noqonuniy ravishda foyda olish va boyishdir.

Narkotiklarni noqonuniy savdo qilish, daromadlarni taqsimlash va shu bilan bog'liq harakatlar davlatga katta zarar yetkazadigan jinoiy iqtisodiyotning bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Jinoyatchilikning ushbu shaklini tadqiq etish hozirgi vaqtda ham dolzarbligicha qolmoqda. I.N. Seliverstov ta'kidlaganidek, uyushgan jinoyatchilik ko'laming kengayishi odamlarni jinoiy muhit bilan o'zaro aloqaga kirishishga jalb qiladigan obyektiv omillar bilan bog'liq bo'lib, bu esa uning yanada rivojlanishiga qonuniy ravishda turtki beradi.

Hozirgi vaqtda kriminologlar uyushgan jinoiy faoliyatning quyidagi asosiy sohalarini ajratib ko'rsatadilar, jumladan:

- narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi;
- qurol-yarog'ning noqonuniy aylanmasi;
- noqonuniy migratsiyani tashkil etish;
- odam savdosi, inson a'zolari va to'qimalari savdosi;
- avtotransport vositalarini o'g'irlash va kontrabanda qilish;
- tarixiy qimmatliklarni o'g'irlash va kontrabanda qilish;
- kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar;

- jinoiy yo‘l bilan olingan mol-mulkni legallashtirish;
- mualliflik huquqlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar;
- korrupsiyaviy jinoyatlar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Uyushgan jinoiy guruhlar jahon narkobozorining faoliyat yuritishida muhim o‘rin tutadi. Ular narkotik moddalarni ishlab chiqarish, tashish va tarqatishni ta‘minlaydigan murakkab logistik tarmoqlarni shakllantiradi. Uyushgan jinoyatchilik yuqori darajadagi latentlik (yashirinlik) bilan ajralib turadi va bu ko‘rsatkich 80 % gacha yetishi mumkin. Bu holat tabiiy hamda sun‘iy omillar bilan izohlanadi.

Latentlikning tabiiy omillariga jinoyatchilarning yuqori darajada tayyorgarligi va professionalizmi kiradi. Bu esa jinoyatlarni fosh etishni ancha qiyinlashtiradi (ayniqsa narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi, firibgarlik va iqtisodiy faoliyat sohasida). Shuningdek, jabrlanuvchilar va guvohlarning erkinlikda yurgan jinoiy tuzilma vakillaridan ehtimoliy qasos olishidan qo‘rqishi ham muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, butunjahon Internet tarmog‘i orqali taqiqlangan moddalarni yetkazib berishga qaratilgan narkotrafik shakllangan. Ularning tarqatilishi nafaqat bir davlat doirasida, balki davlatlararo darajada ham amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda «Darknet» (yoki «qora internet», «soyaviy internet») alohida ahamiyatga ega. U Internetning faqat maxsus brauzerlar orqali kirish mumkin bo‘lgan yashirin segmenti hisoblanadi. Uning yordamida narkosavdogarlar xavfsiz narkotik moddalarni anonim tarzda sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, kriptovalyutalar paydo bo‘lishi bilan moliyaviy tranzaksiyalarni kuzatish yanada qiyinlashmoqda. Bu esa xalqaro narkobiznesning rivojlanishiga va narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi muammosining keskinlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Narkotik vositalarning davlatlararo darajadagi noqonuniy aylanmasi transmilliy jinoyatchilik turiga kiritiladi.

Baholashlarga ko‘ra, 2009-yilda uning aylanmasi 870 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 1,5 % ga tengdir. Bu summa

o'sha yilda rivojlanish maqsadlari uchun ajratilgan rasmiy yordam hajmidan olti baravardan ham ko'p va jahon tovar eksportining qariyb yetti foiziga teng bo'lgan [7].

Transmilliy jinoyatchilikning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

1. narkotik moddalar ishlab chiqarilishini nazorat qilish;
2. xalqaro tashish kanallarini tashkil etish;
3. milliy bozorlarda narkotiklarni tarqatish;
4. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish.

Zamonaviy jinoiy tarmoqlar yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega. Ular markazlashmagan (detsentralizovan) tuzilmalardan foydalanadi, bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar harakatlariga samarali moslashish imkonini beradi.

Transmilliy narkojinoyatchilik — bu bir nechta davlat hududida amalga oshiriladigan va narkotiklarning noqonuniy aylanmasidan katta moliyaviy foyda olishga qaratilgan uyushgan jinoiy faoliyat shaklidir. U ko'lamdorligi va murakkabligi bilan ajralib turadi va shu sababli eng jiddiy global muammolardan biri hisoblanadi [8, 110-b.]. Bunday darajadagi jinoiy faoliyat murakkab, ko'p bosqichli uyushgan tuzilmalarni yaratishni nazarda tutadi.

Transmilliy jinoyatchilik rivojlanishining salbiy tendensiyalarini tahlil qilar ekan, N.N. Dyachenko va S.P. Vayle zamonaviy sharoitda u shunday miqyosga yetganini ta'kidlaydilarki, bu unga tizim yaratuvchi xususiyat baxsh etadi. Ularning fikricha, transmilliy jinoyatchilik amalda jamiyat hayotining barcha muhim sohalari — siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga kirib borgan. Tadqiqotchilar eng ko'zga tashlanadigan tendensiyalar sifatida jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish jarayonlarining kuchayishini, tadbirkorlik faoliyatini qonuniy amalga oshirishga qarshi qaratilgan tajovuzlar sonining ortishini, uyushgan jinoiy guruhlarining yiriklashuvi va birlashuvini, shuningdek ularning ichki tuzilmasining murakkablashuvi hamda jinoiy faoliyat professionallik darajasining o'sishini ko'rsatadilar [9, 76-b.].

Transmilliy jinoyatchilikni quyidagi belgilari mavjud:

1. jinoiy birlashmalarning tuzilmalashganligi va yuqori darajada tashkil etilganligi;

2. moddiy bazaning mavjudligi;

3. qonuniy ko‘rinishga ega bo‘lgan faoliyat turlarining mavjudligi;

4. hokimiyat bilan korrupsion aloqalar va boshqalar.

Muhokama (Discussion). Transmilliy narkojinoyatchilik bir qator sabablarga ko‘ra jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Asosiy xavflardan biri — narkotik moddalar tarqalishi natijasida millat genofondiga yetkaziladigan halokatli ta’siridir. Narkosavdo bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar ko‘pincha zo‘ravonlik bilan bog‘liq faoliyatga ham jalb etilgan bo‘lib, bu esa oddiy fuqarolar xavfsizligiga tahdid soladi.

Bundan tashqari, jinoyatchilikning ushbu shakli davlatda korrupsiyaning rivojlanishiga sabab bo‘ladi, qonuniylik va huquq-tartibotni izdan chiqaradi, bu esa oxir-oqibat jamiyat barqarorligining buzilishiga olib keladi.

L.V.Glazkovaning fikriga ko‘ra, zamonaviy uyushgan jinoyatchilik murakkab tizimli tabiatga ega. Uyushgan jinoyatchilikning asosini tashkil etuvchi professional, iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatchilik ko‘plab mutaxassislar — buxgalterlar, moliyachilar, huquqshunoslar va bankirlar ishtirokisiz faoliyat yuritishi va rivojlanishi mumkin emas. Ularning yordami faqat ayrim jinoyatlarni sodir etishni ta’minlash bilangina cheklanmaydi, balki noqonuniy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va jinoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan pul mablag‘lari hamda mol-mulkka egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishga qonuniy tus berishga qaratilgan bitimlarni tuzishda ham namoyon bo‘ladi.

Jinoiy va jinoyatga yaqin manfaatlarning chambarchas bog‘lanib ketishi natijasida uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy jamoalarga xizmat qiluvchi yashirin (teng) tizimlar shakllanadi. Bunday tizimlar doirasida narkojinoyatchilik jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatadi va jinoiy mafkura hamda jinoiy xulq-atvor modellarining tarqalishiga sabab bo‘ladi [10, 84-b.].

Shuningdek, narkotik moddalarning noqonuniy savdosidan olingan mablag‘lar boshqa turdagi jinoiy faoliyatni, jumladan terrorizmni moliyalashtirishga ham yo‘naltirilishi mumkin.

Transmilliy narkojinoyatchilik jahon miqyosiga ega bo‘lib, davlatlar chegaralarini kesib o‘tadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu hodisaga qarshi kurashish vazifalarini yanada murakkablashtiradi.

Narkotik moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq transmilliy jinoiy guruhlar va tashkilotlar faoliyati rasman O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga tahdid sifatida e‘tirof etilgan. Narkobiznes jamoat tartibiga, iqtisodiy xavfsizlikka hamda davlat boshqaruvi tizimiga jiddiy zarar yetkazadi.

Shuning uchun davlat va uning tegishli organlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biri — narkobiznesga ixtisoslashgan jinoiy guruhlarini aniqlash va bartaraf etish, narkotik moddalar va ularning prekursorlarini ishlab chiqaruvchilar hamda tarqatuvchilarni javobgarlikka tortish, shuningdek o‘z vaqtida va samarali davlat antinarkotik siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Xulosa (Conclusion). Bayon etilganlardan xulosa qilish mumkinki, uyushgan jinoyatchilik fenomeni kelgusida ham chuqur kriminologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Bunday tadqiqotlarning asosiy maqsadi — uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy jamoalar faoliyatiga nisbatan yanada samarali profilaktik ta‘sir mexanizmlarini izlab topish va ishlab chiqishdir. Faqat ilmiy yondashuvlarni takomillashtirish va profilaktika choralarini amaliyotga tatbiq etish orqaligina uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash tizimi uning hozirgi darajasi va rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda samarali bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan Narkomaniya va narkojinoyatchilikka qarshi kurashish Milliy strategiyasining ustuvor maqsadlariga erishish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash, aholini, ayniqsa yoshlar salomatligi va millat genofondini samarali himoya qilish, shuningdek narkomaniya va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurash

faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2025-yil 3-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini narkomaniya va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–207-son Farmoni qabul qilindi [11].

Ushbu farmon bilan 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan narkomaniya va narkojinoyatchilikni barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar Milliy dasturi tasdiqlandi.

Milliy dastur milliy xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi strategik rejalashtirish hujjati hisoblanadi va davlatning antinarkotik siyosati amalga oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan.

Farmon va dasturning asosiy qoidalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

— antinarkotik siyosatni takomillashtirish va narkotik vositalar aylanmasi ustidan davlat nazoratini kuchaytirish, jumladan qonunchilikni, texnologiyalarni va monitoring tizimini rivojlantirish;

— ta‘lim dasturlari, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va ko‘ngillilar ishtirokini ta‘minlash orqali narkotiklarni noqonuniy iste‘mol qilishning oldini olish hamda uni erta aniqlash;

— davolash, reabilitatsiya va erta tashxis qo‘yish tizimini rivojlantirish orqali narkotikka qaramlar sonini kamaytirish;

— chegaralarda nazoratni kuchaytirish va uyushgan jinoiy guruhlarga qarshi kurashni faollashtirish orqali narkotik moddalar aylanmasi sohasidagi jinoyatlarni kamaytirish;

— narkotiklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston narkotik moddalar tarqalishiga qarshi kurash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish sohasidagi xalqaro majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda. Xususan, 1995-yil fevral oyida respublika BMTning narkotiklar ustidan nazorat qilishga oid konvensiyalariga qo‘shildi, 1999-yil avgust oyida mamlakatda “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi [12],

2021-yil yanvar oyida esa “Narkologik kasalliklarni profilaktika qilish va davolash to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirdi [13].

Hozirgi vaqtda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNP OON) bilan hamkorlikda O‘zbekistonda quyidagi mintaqaviy loyihalar amalga oshirilmoqda:

1. Mintaqaviy loyiha «Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtirish markazini (SARIKS) tashkil etish» (umumiy byudjeti — 15,4 mln AQSH dollari).

Loyiha doirasida SARIKSni tashkil etish to‘g‘risidagi kelishuv ishtirokchi davlatlarining milliy koordinatorlari Kengashining bir nechta yig‘ilishlari o‘tkazildi. Ularda kelgusi 2-yil uchun faoliyatning asosiy yo‘nalishlari belgilandi hamda markaz faoliyatiga doir eng dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

2. Mintaqaviy loyiha «Treatment II — narkologik qaramlikni va uning sog‘liqqa salbiy oqibatlarini davolash» (1 mln 490 ming AQSH dollari).

Loyiha doirasida sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari mutaxassislari mintaqaviy treninglarda ishtirok etmoqda.

3. Mintaqaviy loyiha «Yoshlar o‘rtasida psixoaktiv moddalarni suiiste‘mol qilish, OITS/VICH va jinoyatchilikning oldini olish — oilada hayot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ta‘lim dasturlari orqali».

Hozirgi vaqtda mazkur loyiha doirasida «Oila va maktab birgalikda» dasturi Toshkent shahrida va respublikaning uchta hududida kichik maktab yoshidagi bolalar uchun amalga oshirilmoqda.

4. Mintaqaviy loyiha «Afg‘on opiatlarining shimoliy yo‘nalish orqali noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish — asosiy chegara punktlari salohiyatini kuchaytirish va chegara aloqa bo‘linmasini tashkil etish orqali» (umumiy byudjeti — 1,3 mln AQSH dollari) [14].

Transmilliy narkojinoyatchilik tahdidi sharoitida davlat antinarkotik siyosatini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta‘minlashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Narkobiznesga qarshi samarali

kurashish va transmilliy jinoiy guruhlariga qarshi ta'sirchan choralar ko'rish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Narkokartellar va narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan shug'ullanuvchi jinoiy tashkilotlar faoliyatini aniqlash va bartaraf etish maqsadida operativ-qidiruv faoliyati usullari va texnologiyalarini takomillashtirish.

2. Narkobiznesga qarshi kurash samaradorligini pasaytirishi mumkin bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda davlat tuzilmalari ichidagi korrupsion sxemalarni aniqlash va ularga chek qo'yish, shuningdek nazoratni kuchaytirish.

3. Transmilliy narcojinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha axborot almashish, qo'shma operatsiyalar o'tkazish va xalqaro strategiyalarni ishlab chiqish maqsadida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

4. Narkotik moddalar tarqalishining oldini olish hamda narkologik qaram shaxslarga yordam ko'rsatish maqsadida narkomaniya profilakti.

Foydalanilgan adabiyot (List of References)

1. UNODC. Global cocaine production statistics.
2. БМТнинг 2025 йилги гиёҳванд моддалар тўғрисидаги жаҳон ҳисоботи. UNODC Наркотиклар ва жиноятчиликка қарши кураш бошқармаси. Асосий хулосалар. Б.-14.
3. Более 11 тысяч человек привлекли к ответственности за наркопреступления в 2025 году // <https://www.gazeta.uz/ru/2026/02/04/drug-crimes>.
4. Михайлов А.Е., Семенов С.А., Тараканов И.А. Организованная преступность: состояние и тенденции // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2020. №12-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizovannaya-prestupnost-sostoyanie-i-tendentsii> (дата обращения: 06.03.2026).
5. Долгова А.И. Организованная преступность, ее развитие и борьба с ней II Организованная преступность-3. М., 1996. С. 20.
6. Селиверстов И.Н. Социальная опасность организованной преступности: новые тенденции в XXI веке // Юридическая мысль. 2019. № 4-5 (114-115). С. 108-120.
7. Транснациональная организованная преступность: глобализованная нелегальная экономика // URL: <https://www.unodc.org/toc/ru/crimes/organized-crime.html>.
8. Михайлов Алексей Евгеньевич, Семенов Сергей Александрович, Тараканов Илья Александрович Организованная преступность: состояние и тенденции // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2020. №12-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizovannaya-prestupnost-sostoyanie-i-tendentsii> (дата обращения: 06.03.2026).
9. Дьяченко Н.Н. Состояние и тенденции современной организованной преступности / Н.Н. Дьяченко, С.П. Вайле // Деятельность правоохранительных органов в современных условиях. Сборник материалов XXV международной научно-практической конференции. Саратов, 2020. С. 7582.

10. Глазкова Л.В. Взаимодействие систем организованной преступности и коррупции // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 7(104). С. 77-86.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.11.2025 йилдаги ПФ-207-сон Фармони «Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида» // URL: <https://lex.uz/ru/docs/7818779>.
12. Ўзбекистон Республикасининг 19.08.1999 йилдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида» 813-И-сон Қонуни // URL: <https://lex.uz/docs/86028?ONDATE2=02.06.2022&action=compare>.
13. Ўзбекистон Республикасининг 27.10.2020 йилдаги «Наркологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида» ЎПҚ-644-сон Қонуни // URL: <https://lex.uz/uz/docs/5069150>.
14. URL: <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-mezhdunarodnye-organizatsii/153-vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-voprosy-mezhdunarodnoj-bezopasnosti.html>.

Mundarija

Kirish soʻzi.....	3
Berdialiyev B.E. Mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasi va uning tendensiyalari: ijtimoiy profilaktikaning kriminologik ahamiyati.....	4
Nigmatov R.O. Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatining zamonaviy evolyutsiyasi: institutsional va huquqiy tahlil.....	12
Якубов А.С., Азим Ш. О. Здоровье населения и генофонд нации под охраной уголовного закона.....	25
Ollamov Ya.Y., Nurmetov Q.A. Zamonaviy korrupsiya koʻrinishlarining turlari va shakllari.....	43
Maxsadov M.I. Hududiy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari (Toshkent shahri Uchtepa tumani misolida).....	56
Kaxarova M.M. Ayollar jinoyatchiligi hududiy determinatsiyasining ilmiy-amaliy asoslari.....	68
Payziyev D.Yu., Abduqodirov F.F. Yangi Oʻzbekistonda giyohvandlik bilan bogʻliq jinoyatchilikka qarshi kurashish va oldini olish masalalari.....	77
Axmedov F.S. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam koʻrsatishning huquqiy asoslari.....	82
Roʻziyeva G.S. Giyohvandlik muammosi va uning profilaktikasi.....	92
Mirzayev J.U. Qayta jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik choratadbirlar tizimini takomillashtirish.....	103
Xaydarov M.M. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashda jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish: Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muammolar va islohot yoʻnalishlari.....	109
Tulebaev B.R. Oʻzbekiston Respublikasida qurol muomalasi sohasini huquqiy taʼminlashning oʻziga xos xususiyatlari.....	116
Isayev S.A. Transmilliy narkotahdidlar: zamonaviy tendensiyalar, muammolar va qarshi kurash mexanizmlari.....	126
Jamoldinov X.B. Kiberjinoyatchilik: zamonaviy tahdid va uning mintaqaviy xususiyatlari.....	139
Payziyev A.M. Transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashishni raqamli davr sharoitida takomillashtirish: muammolar va yechimlar.....	143
Olimjonov X.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini takomillashtirish.....	152
Oʻrinov O.L. Mintaqaviy jinoyatchilikning oʻziga xos xususiyatlari (uyushgan jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurash faoliyatlari misolida).....	160
Tursunbayev D.T. Mintaqaviy jinoyatchilik taʼsir etuvchi omillarning kompleks monitoringi: kriminologik bashorat va oldini olish mexanizmlari.....	164
Rixsimov K.A. Samarqand viloyatida sodir etilgan oʻgʻrilik jinoyatlarining kriminologik tahlili.....	172
Abdumalikov A.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish muammolari hamda yechimlari fargʻona viloyati misolida.....	179
Oʻrinova D.A. Fargʻona viloyatida ayollar jinoyatchiligining holati, tuzilishi va dinamikasi hamda respublika bilan qiyosiy tahlili.....	190

**“MINTAQAVIY JINOYATCHILIKNING DINAMIKASI VA
TENDENSIYALARI” NOMLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO‘PLAMI**

(2026-YIL 15-APREL)

Muharrir: tuzuvchilar tahririda

Sahifalovchi: S.A. Isayev

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
tahririy noshirlik markazida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo-ulug‘bek tumani,
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy.